

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

TURSUNOVA NAMUNAXON XAYDARALI QIZI

MUHAMMAD AMINXO‘JA MUQIMIY G‘AZALIYOTI POETIKASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Tursunova Namunaxon Xaydarali qizi
Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy g‘azaliyoti poetikasi.....3

Namunaxon Khaydarali qizi Tursunova
Poetics of Muhammed Aminkhoja Muqimi'ghazaliyat.....25

Турсунова Намунахон Хайдарали кизи
Поэтика Газалиата Мухаммада Аминсоджи Мукими..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Spisok opublicovannых rabot..... 49

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

TURSUNOVA NAMUNAXON XAYDARALI QIZI

MUHAMMAD AMINXO‘JA MUQIMIY G‘AZALIYOTI POETIKASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/ Fil1498 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasi (www.fdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qobilova Zeboxon Bakirovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tojiboyeva Muqaddasxon Abdurahimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Karimova Shahloxon G'aniyevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "4" yanvar soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151 Farg'ona sh, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. № 444
Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel.: (99873) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "21" dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil "21" dekabr dagi 2 - raqamli reyestr bayonnomasi).



S. M. Muminov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

M. T. Zokirov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filologiya fanlari nomzodi, professor

Z. A. Rahimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotining tadqiq etilishi zarur bo'lgan mavzularidan biri, shubhasiz, mumtoz adabiy merosni tarixiy obyektivlik va adabiy jarayonning rivojlanish tendensiyasining ajralmas qismi sifatida yangicha ilmiy yondashuvlar asosida o'rganish masalasidir. Har bir ijodkorning milliy adabiyot tarixidagi o'rnini va badiiy tafakkur xazinasiga qo'shgan hissasini, ijodiy o'ziga xosligini aniqlash dolzarb vazifalar qatorida turibdi.

Dunyo adabiyotshunosligida keyingi yillarda mumtoz adabiy merosga munosabat o'zgardi. Badiiyat durdonalarining yaratuvchisi bo'lmish muallif mahoratining turli qirralarini tadqiq etish jahon miqyosida keng tus oldi. Chunki har qanday asarning badiiy barkamollik sirlari bevosita uning muallifining iste'dodi, malakasi va mahorati bilan bog'liq. Binobarin, muayyan asar badiiyatini muallif mahoratidan ayri holda tadqiq etib bo'lmaydi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham keyingi yillarda asar badiiyati, uslubiy xususiyatlari, muallif mahorati, badiiy san'atlarni qo'llash masalalari tadqiqotlarning yetakchi yo'nalishiga aylandi. Natijada ko'plab mumtoz so'z san'atkorlari va zamonaviy shoir, yozuvchilarning asarlari badiiy xususiyatlari va muallif mahorati nuqtai nazaridan o'rganilgan tadqiqotlar yuzaga keldi. Lekin qilinadigan ishlar ko'lami hali keng. Zero, "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz"¹, deb ta'kidlangani ham bejiz emas. O'zbek adabiyotining yorqin iste'dodli vakillaridan biri Muhammad Aminxo'ja Muqimiy ijodiy merosi sho'ro tuzumi yillarida o'zining xolis bahosini olmadi. To'laqonli tadqiq etilmaganiga yarasha g'oyaviy tahrir ham qilindi. Natijada asarlarining mohiyatiga mutlaqo teskari talqinlar maydonga keldi. Shoir she'riyatini xolis o'rganish, mahoratining asosiy qirralarini, ijod namunalari xalq ichida mashhurlik sirlarini va asrlarni bo'ylab kelish sabablarini, uning so'z qo'llash mahorati, g'azaliyotining uslubiy xususiyatlari, xalq og'zaki ijodiga yaqinligi omili asosida tadqiq qilish ayni jihatdan mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi va muhimligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-5850-son Farmoni, 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6097-son Farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyati,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // [http:// uza.uz/posts/3452](http://uza.uz/posts/3452).

ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari, 2019-yil 10-oktyabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzuidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Muqimiyshunoslikdagi dastlabki urinishlar shoir asarlarining nashri va ommalashtirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu borada shubhasiz, N.Ostroumovning xizmatlarini alohida ta‘kidlash kerak. U 1907-yilda 1912-yillar orasida “Devoni Muqimiy”ni va bir qator bayozlarni toshbosma usulida nashr ettirdi². Rus olimi M.Gavrilov esa “Туркестанские ведомости” gazetasining 1912-yil 12-avgust sonida “Sart shoiri Muqimiy” nomi ostida taqriz maqolasini e‘lon qildi³.

O‘tgan asrning 30-yillaridan shoir hayoti va ijodini o‘rganish jadal sur‘atlarda boshlandi. Birgina G‘afur G‘ulom tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar muqimiyshunoslikda bir bob bo‘ldi⁴.

XX asrning 60-yillarida G‘ulom Karimov muqimiyshunoslikda samarali faoliyat ko‘rsatdi⁵. Olim shoir asarlarini qayta-qayta nashr ettirdi, oliy ta‘lim adabiyot dasturlariga Muqimiy hayoti va ijodini o‘rganishni ham kiritdi.

² Девони Муқимий – Тошкент: 1907. ЎзФАШИ, инв. №236.

³ Абдуғафуров А. Эрк ва эзгулик куйчилари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.

⁴ Фулом Ғ. Муқимий (Сўзбоши) // Муқимий баёзи (Тўпловчи: Ғ.Фулом). Ҳамид Олимжон таҳрири остида. – Тошкент.: Ўздавнашр. 1932. – Б. 5–7; Фулом Ғ. Муқимий мактублари // // Фулом Ғ. Асарлар, 10 жилдлик, 8-жилд (Адабий-танқидий мақолалар, очерклар, портретлар). – Тошкент: Ғ.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 92–93; Фулом Ғ. Муқимий // Фулом Ғ. Асарлар, 10 жилдлик, 8-жилд (Адабий-танқидий мақолалар, очерклар, портретлар). – Тошкент: Ғ.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 145–147; Фулом Ғ. Демократ шоир // Фулом Ғ. Асарлар, X жилдлик, 8-жилд (Адабий-танқидий мақолалар, очерклар, портретлар). – Тошкент: Ғ.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976. – Б. 148–152; Фулом Ғ. Муқимий ва Муҳйи Муҳаммад Аминхўжа Муқимий. Талланма асарлар (Нашрга тайёрловчи: Ғ.Фулом). Уйғун таҳрири остида. – Тошкент: ЎзФАН, 1942.

⁵ Каримов Ғ. Муҳаммад Аминхўжа Муқимий (Сўзбоши) // Муқимий. Асарлар тўплами. Икки жилдлик, 1-жилд (Нашрга тайёрловчи: Ғ.Каримов). – Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1960. – Б. 3-38; Муқимий. Асарлар тўплами. Икки жилдлик, 2-жилд (Нашрга тайёрловчи: Ғ.Каримов). – Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти. 1960. – Б. 199; Каримов Ғ. Ўзбек демократ шоири Муқимий ва унинг даври адабиёти. Докторлик дисс. – Toshkent, 1962; Каримов Ғ.К. Муқимий // Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб (XIX асрнинг иккинчи ярмидан XX аср бошларигача). Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1966. – Б. 73-144; Каримов Ғ. Мавлоно Муқимий (Сўзбоши) // Муқимий. Асарлар. – Тошкент: Ғ.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1974.

Asqarali Charxiy ham Muqimiy adabiy merosini tiklashda, uni avaylab saqlashda, eʼlon qilinmagan bir qancha gʻazallarini xalqqa taqdim qilishda alohida jonbozlik koʻrsatgan⁶.

Muqimiyning hayoti, faoliyati, ijodi, asarlarining janriy tarkibi, matniy tadqiqi, shoir mansub adabiy muhit boʻyicha adabiyotshunoslikda salmoqli ishlar amalga oshirildi⁷. Mazkur tadqiqotlarda davr talabi, mafkura taqozosiga koʻra Muqimiy asarlaridan, asosan, ijtimoiy mazmun qidirildi, shoirning oʻz zamonini fosh qiluvchi satirik va yumoristik asarlari tadqiqiga zoʻr berildi. Bu sheʼrlarning ortida turgan, ularning el ichida shuhrat qozonishiga sabab boʻlgan muallifning mahorati masalalari tadqiqot doirasidan chetda qolib ketaverdi.

Mustaqillik yillarida muqimiyshunoslikda ham bir qator yutuqlar qoʻlga kiritildi. Shoir sheʼrlaridan iborat toʻplamlar, toʻla asarlar majmuasi eʼlon qilindi.⁸ Matnshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiqotlar amalga oshirildi, shuningdek, ilmiy maqolalar nashr etildi⁹. Yangi davr muqimiyshunosligida matnshunos olim Qoʻldosh Pardayevning izlanishlari tahsinga sazovor. Olimning izlanishlari natijasida Muqimiyning 13 gʻazal, 3 muxammas, jami 194 misra sheʼri aniqlanib, birinchi marotaba ilmiy muomalaga olib kirildi, shoʻro mafkurasi nuqtai nazaridan shoir asarlari toʻplamidan tushirib qoldirilgan misra, bayt va bandlardan

– Б. 5-32; Каримов Ф. Муқимий ҳаёти ва ижоди. (Монография). – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.

⁶ Чархий. Девон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 4.

⁷ Шарафиддинов О. Муҳаммад Аминхўжа Муқимий // Адабиёт дарслиги. Ўрта мактаблар учун. – Тошкент: Ўқувпеднашр, 1939; Уйғун. Муҳаммад Аминхўжа Муқимий (Сўзбоши) // Муҳаммад Аминхўжа Муқимий. Талланма асарлар (Нашрга тайёрловчи: Ф.Фулом). Уйғун тахрири остида. – Тошкент: ЎзФАН, 1942. – Б. 5–35; М. Шайхзода. Ватан гулзорининг ўтли булбули. / Ўқитувчи. – Тошкент, 1943; Олимжон Ҳ. Муҳаммад Амин Муқимий // Танланган асарлар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1952; Фурқат ва Муқимий ҳақида мақолалар. – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1958; Олимжон А. Муҳаммад Аминхўжа Муқимий (Ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Ўз ССР Фанлар академияси нашриёти, 1953. – Б. 60; Муқимий. Ғазаллар. (Нашрга тайёрловчи: Хотамов Н). – Ташкент: Давлат ўқитувчи-педагогика нашриёти, 1959. – Б. 31; Абдуғафуров А. Муқимий // Буюк сиймолар, алломалар. Уч китобдан иборат, 3-китоб. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1997. – Б. 95–100; Қайюмов П.Д. Тазкираи Қайюмий. – Тошкент: ЎзР ФА Кўлэмалар институти тахририй нашриёт бўлими, 1998. – Б. 210–227; Muqimiy. Saylanma / Muqimiy (Nashrga tayyorlovchi: Karimov Gʻ). – Tashkent: Maʼnaviyat, 2009.

⁸ Очилов Э. Ўзбек халқининг мўтабар шоири // Муқимий. Кўнглум сандадур. – Тошкент: Шарк, 2009; Муқимий. Боғ аро. Шеърлар (Нашрга тайёрловчи: Турдалиев А). – Тошкент: Академнашр, 2010; Муқимий. Тўла асарлар тўплами. (Нашрга тайёрловчи: Турдалиев А). – Тошкент: Иқтисодиёт, 2021; Muqimiy. Intizor (Qoʻshiq) (Nashrga tayyorlovchi: Ochilov E). – Tashkent: Iqtisodiyot, 2021.

⁹ Жўраева Р.А. Муқимий асарларининг лексик-семантик хусусиятлари.—Кўкон, 2022; Қобилова З. Амирий ва Муқимий (Монография). – Фарғона: Фарғона, 2020. Очилов Э. Муқимий // Нафис мажлислар (Рисолалар), 2-китоб. – Тошкент: Info Capital Group, 2018. – Б. 160–182; Qodirov V. Muqimiy lirikasida xalqona ifoda omillari // Oʻzbek tili va adabiyoti. 2008, 2-son. – B. 51-53; Pardayev Q. Muqimiyning qoʻlyozma bayozlari // Oʻzbek tili va adabiyoti. 2013, 3-son. – B. 61-65; Очилов Э. Муқимий ижодида Навоий аънавалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2020, 4-сон. – Б. 46–49; Очилов Э. Муқимий шохбайтлари // Адабиётшуносликнинг долзарб масалалари (Халқаро конференция материаллари). – Тошкент: Тафаккур, 2020. – Б. 133–141; Joʻrayev O. Muqimiy nazmining nazokati // Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati. 34-son; Жўрабоев О. Муқимий кўлэмаларида форсий шеърлар. // Сино, 2007, 28-сон; Iskandarova Sh, Joʻrayeva R. Muqimiy ijodida oʻxshatishlar. // Oʻzbek tili va adabiyoti. 2021, 5-son. – B. 101-105; Очилов Э. Муқимий ижодида фольклор аънавалари // Ўзбек фольклорининг ўзбек ва инглиз тилларидаги веб сайти ва мультимедиа махсулотини яратиш мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани. – НамДУ, 2021. – Б. 41–45; Tojiboyeva M. Muqimiyning xalqona ruhda sheʼriyati xususida. Qoʻqon adabiy muhiti va uchinchi renessans (xalqaro ilmiy-amaliy anjuman). Fargʻona: Fagʻona, 2022. – B.192.

jami 285 misra qayta tiklandi¹⁰. Bu izlanishlar natijasi Muqimiy adabiy merosi haqidagi tasavvurlarni boyitadi.

Bizning tadqiqotimiz esa shoir ijodiga yangicha mezonlar asosida yondashish orqali g‘azaliyotining mashhur bo‘lishiga sabab bo‘lgan ijodkorlik mahorati qirralarini, jumladan, an‘ana bag‘rida yaratilgan yangiliklar, shoir uslubining asosiy xususiyatlari, poetik o‘ziga xosliklari, folklorizmlarning o‘rni kabi masalalarni monografik tarzda yoritishga qaratilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Poetika muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Muqimiy g‘azaliyotining badiiy xususiyatlari va shoirning tasvir mahorati qirralarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

istiqlol davri muqimiyshunosligini o‘rganish;

Muqimiy ijodida an‘ana va o‘ziga xoslikning namoyon bo‘lish shakllarini tahlil qilish;

Muqimiy ijodida folklorizmlarning mavqeini aniqlash;

Muqimiy uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

Muqimiy g‘azallarining shakl va mazmun uyg‘unligi jihatidan tahlil qilish;

Muqimiyning badiiy san‘atlardan foydalanish mahorati, g‘azaliyotida vazn, qofiya va radifning tutgan o‘rnini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida Muqimiyning to‘la asarlar to‘plami¹¹ olingan. O‘rni bilan Muqimiy adabiy merosining G‘afur G‘ulom, G‘ulom Karimov, Qo‘ldosh Pardayevlar tomonidan nashrga tayyorlanib, chop etilgan nusxalariga murojaat qilingan.

Tadqiqotning predmetini Muqimiy badiiy mahoratining asosiy qirralarini tadqiq etish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-qiyosiy, tarixiy-madaniy, biografik, germenovik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Muqimiyning dunyoqarashi, ijtimoiy voqelikka munosabati, ijodkor sifatidagi ma‘naviy qiyofasida islom ma‘rifati va tasavvuf axloqi yetakchi ekanligi dalillangan;

Muqimiy ijodidagi an‘anaviy va yangi obrazlarning she‘rda tutgan o‘rni, bajargan vazifasi, ifoda etilgan g‘oyasiga ko‘ra ramziy, majoziy, diniy, tasavvufiy, afsonaviy, tarixiy va hayotiy obrazlar singari 13 ta turi aniqlangan;

¹⁰ Пардаев Қ. Биз билмаган Муқимий. – Тошкент: Мухаррир, 2019. – В. 160. Пардаев Қ. Муқимий шеърятининг матн тарихи, таҳрири ва талқини. Докторлик дисс. – Тошкент, 2020; Adabiy manbalar bilan ishlash amaliyoti (O‘quv qo‘llanma) – Toshkent: Bookmany print, 2022; O‘zbek adabiyoti tarixi (Muqimiy ijodi) (O‘quv qo‘llanma) – Toshkent: Bookmany print, 2023. – В.120; Pardayev Q. Navoiy mahoratining Muqimiy ijodiy kamolotidagi o‘rni. // Alisher Navoiy va Qo‘qon adabiy muhiti (xalqaro ilmiy anjuman). – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021. – Б. 34-37;

¹¹ Муқимий. Тўла асарлар тўплами. (Нашрга тайёрловчи: Турдиалиев А). – Toshkent. Иқтисодиёт, 2021.

shoirning folklarga xos qayg‘u, safar kabi motiv; Hizr, humo, tog‘ singari obraz; o‘xshatish, jonlantirish, takror kabi tasviriy vositalar; dev, pari singari mifologik obrazlar stilizatsiyasi, xalq olqishlari, qarg‘ishlari, askiyalari, hikmatli so‘zlar va xalqning e‘tiqod tarzidan badiiy maqsad ifodasi uchun mahorat bilan foydalanganligi isbotlangan;

Muqimiy aruzning nisbatan sodda va xalq ko‘ngliga yaqin ramal, hazaj, rajaz, muzore‘ kabi bahrlarida ijod qilgani, joy nomlari, tarixiy shaxslar va zamondoshlarining ismlaridan qofiya sifatida foydalangani hamda kundalik hayotdan olingan yangi va o‘ziga xos radiflarni qo‘llab, o‘zbek she‘riyatining radif zahirasini boyitganligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Muqimiyning an‘ana bag‘rida yangiliklar qilib, o‘zbek she‘riyatini yangi mavzu, uslub, adabiy qahramonlar silsilasi bilan boyitgani asoslangan;

chinakam xalqchil she‘riyat yaratgan Muqimiy uslubini tashkil etgan tasvir usuli, bayon tarzi, so‘z qo‘llashdagi o‘ziga xosligi ochib berilgan;

shoirning she‘rlari badiiy barkamolligi va estetik ta‘sirchanligini ta‘minlagan badiiy san‘atlarlar, vazn, qofiya va radifdan foydalanishdagi mahoratining o‘ziga xosliklari oydinlashtirilgan;

xalq og‘zaki ijodining ko‘p asrlik an‘analari va mumtoz so‘z san‘atining ilg‘or tajribalarini o‘z ijodida uyg‘unlashtirish orqali yaratgan xalqchil she‘riyatining asosiy omillari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalarning metodologik asosga ega ekanligi, ishonchli nazariy manbalar hamda lug‘atlardan foydalanilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati kelgusida ijodkor mahorati va asar badiiyati yo‘nalishida amalga oshiriladigan tadqiqotlar uchun o‘ziga xos yordamchi manbalardan biri bo‘lishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyadagi asosiy qarashlar va xulosalar asosida oliy o‘quv yurtlarining filologiya yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalari uchun “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Mumtoz poetika”, “Adabiyot nazariyasi”, “O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi” kabi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, metodik tavsiyanomalar tuzishda, magistrantlar va bakalavriyat bosqichi talabalari uchun Qo‘qon adabiy muhiti bo‘yicha tanlov fanlarini o‘qishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Muqimiy g‘azaliyotining poetik o‘ziga xosliklarini o‘rganish jarayonida erishilgan ilmiy xulosalarning joriylanishi quyidagilarda ko‘rinadi:

Muqimiyning dunyoqarashi, ijtimoiy voqelikka munosabati, ijodkor sifatidagi ma‘naviy qiyofasida islom ma‘rifati va tasavvuf axloqi yetakchi ekanligi asoslangan o‘rinlardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining nazm va adabiy tanqid bo‘limi muhokamalarida, yosh ijodkorlar bilan o‘tkazilgan mahorat darslarida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 11-

martdagi 01-03/281-son ma'lumotnomasi). Natijada yosh ijodkorlarning muqimiyshunoslik tarixi va taraqqiyoti haqidagi bilimlari kengaygan;

Muqimiy ijodidagi an'anaviy va yangi obrazlarning she'rdada tutgan o'rni, bajargan vazifasi, ifoda etilgan g'oyasiga ko'ra ramziy, majoziy, diniy, tasavvufiy, afsonaviy, tarixiy va hayotiy obrazlar singari 13 ta turi aniqlangan o'rinlardan 2022-yilda davlat ilmiy texnika dasturlari doirasida bajarilgan AL-322103020 raqamli "Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo'yicha veb-sayt va elektron platforma yaratish" mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Qo'qon davlat pedagogika institutining 2024-yil 23-oktabrdagi 1408/04-son ma'lumotnomasi). Natijada platforma Muqimiy ijodiga doir yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitilib, foydalanuvchilarga qulaylik yaratilgan;

Muqimiyning aruzning nisbatan sodda va xalq ko'ngliga yaqin bahrlari: ramal, hazaj, rajaz, muzore'da ijod qilganligi, joy nomlaridan, tarixiy shaxslar va zamondoshlarining ismlaridan ham ham o'rni kelganda qofiya sifatida mahorat bilan foydalanganligi, kundalik hayotdan olingan yangi va o'ziga xos radiflarni qo'llab, o'zbek she'riyatining radif zahirasi boyitganligi asoslangan xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali "Bedorlik", "Adabiy jarayon" nomli eshittirishlarida (2022-2024-yillar) foydalanilgan. Dissertantning o'zi mavzu yuzasidan "G'azal bo'stoni" eshittirishining bir necha sonlarida ishtirok etgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali"ning 2024-yil 12-martdagi 04-36-358-son ma'lumotnomasi). Natijada, eshittirishlar ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilib, ularning ilmiy-ma'rifiy saviyasi oshgan;

shoirning folklorga xos qayg'u, safar kabi motiv; Hizr, humo, tog' singari obraz; o'xshatish, jonlantirish, takror kabi tasviriy vositalar; dev, pari singari mifologik obrazlar stilizatsiyasi, xalq olqishlari, qarg'ishlari, askiyalari, hikmatli so'zlar va xalqning e'tiqod tarzidan badiiy maqsad ifodasi uchun mahorat bilan foydalangani asoslangan o'rinlardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-2023-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida tatbiq etilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 4-iyundagi 309 son ma'lumotnomasi). Natijada, targ'ibot anjumanlarining ilmiy-ma'rifiy jihatdan o'ziga xosligi ortishiga, badiiy adabiyotning tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyatini ochib berishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida o'qilgan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy maqola nashr etilgan. Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 151 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Muqimiy ijodi va istiqlol davri adabiyotshunosligi”** deb nomlangan bo‘lib, birinchi fasl **“Istiqlol davri muqimiyshunosligining yetakchi tamoyillari”** tadqiqiga bag‘ishlangan.

O‘zbek adabiyotshunosligida hayoti va ijodi eng ko‘p o‘rganilgan shoirlardan biri Muhammad Aminxo‘ja Muqimiydir. Adabiyotshunoslikda muqimiyshunoslik yo‘nalishi paydo bo‘ldi va uning tarixi o‘tgan asrning birinchi choragiga borib taqaladi. Istiqlol davri adabiyotshunosligida sho‘ro davrida aytish mumkin bo‘lmagan ilmiy haqiqatlar yuzaga chiqa boshladi. Badiiy ijod, shu qatori adabiyotshunoslik ilmi mafkura tazyiqidan butunlay xalos bo‘ldi. Bu hol Muqimiy ijodini o‘rganishga oid tadqiqotlarga ham ijobiy ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi. Istiqlol davri muqimiyshunosligida ikki muhim tamoyil ko‘zga tashlanadi: Muqimiy asarlari qo‘lyozmalari va toshbosmalarini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan qayta tadqiq etish; Muqimiyning dunyoqarashi, ijtimoiy voqelikka munosabati, ijodkor sifatidagi o‘rmini mustaqillik mafkurasi va adabiyotshunoslikda qaror topgan yangicha me‘zonlar asosida qayta baholash. Birinchi tamoyil bo‘yicha ish ko‘rish uchun quyidagi muammolar mavjud edi: Muqimiy asarlarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari, dastxat bayozlari to‘liq tadqiq etilmagan; shoir asarlarining matni noto‘g‘ri o‘qilgan yoki tahrir etilgan; shoir she‘rlarining janriy tarkibi va hajmi to‘liq aniqlanmagan. Mazkur muammolar yechimiga istiqlol sharofati bilan jiddiy kirishildi. Istiqlol yillarida shoir asarlarining qator nashrlari dunyo yuzini ko‘rdi. Barcha nashrlar ham kamchiliklardan holi bo‘lmasa-da, shoir asarlari nisbatan to‘g‘ri va to‘liq shaklda xalqimizga yetib bordi.

A.Madaminov istiqlol yillarida (1997 yil) birinchilardan bo‘lib Muqimiy she‘rlaridan tarkib topgan **“Yangi bayoz”**¹²ni e‘lon qildi. Adabiyotshunos Abdulatif Turdialiyev esa Muqimiyning 3 ta dastxatini aniqladi¹³. Olim **“Bog‘aro”**¹⁴ (2010) nomi bilan shoir to‘plamini nashr ettirdi. Shuningdek, olim nashrga tayyorlagan **“To‘la asarlar to‘plami”**¹⁵ ham Muqimiy ijodiy merosi haqida batafsil ma‘lumot beruvchi muhim manba hisoblanadi.

¹² A.Мадаминов нашрга тайёрлаган Муқимий, Фуркат, Завқий асарларидан иборат Янги баёз. Тошкент, 1997.

¹³ Турдалиев А. Муқимийнинг янги аниқланган дастхатлари. Адабий мерос, 1998. 1- сон.

¹⁴ Муқимий. Бог аро. (нашрга тайёрловчи, луғатлар ва изоҳлар, сўз боши // Халқнинг ростгўй шоири муаллифи А.Турдалиев) – Toshkent: Академнашр, 2010.

¹⁵ Муқимий. Тўла асарлар тўплами. (Нашрга тайёрловчи: Турдалиев А). – Toshkent. Иқтисодиёт, 2021.

O.Jo‘raboyev ilmiy izlanishlari orasida ham Muqimiy asarlari manbalari, matniy tadqiqi bilan bog‘liq bir qator tadqiqotlar mavjud¹⁶.

Muqimiy asarlari manbalarini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan qayta tadqiq etishda V.Rahmon izlanishlarni amalga oshirgan.¹⁷ Ularning barchasi turli yillarda chop etilgan Muqimiy asarlari matnidagi xato va nuqsonlarga qaratilgan. Olim Muqimiy asarlarining dastlabki nashrlari haqida fikr yuritib, shoirning 1951-yilda Abdulla Olimjon tomonidan tayyorlangan nashriga Sobir Abdullaning “Mavlono Muqimiy” dramasidan 4 ta she‘rni kiritib yuborganini aniqlaydi¹⁸. Mazkur dramadan 1 she‘r 2013-yilgi nashrga ham kiritilganini tanqid qiladi¹⁹.

G‘.Karimov izdoshlari maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan Muqimiy asarlarini jamlab “Saylanma”²⁰ (2009) chop ettirdi.

Ergash Ochilov Muqimiyning xalqimiz orasida qo‘shiqqa aylanib ketgan mashhur g‘azallari, murabba‘lari, muxammaslarini to‘plab, “Ko‘nglim sandadur”²¹ (2009) “Ey chehrasi tobonim”²² (2013) va “Intizor”²³ (2021) nomi ostida nashr ettirdi.

Q.Pardayev hozirga qadar Muqimiy asarlarini jami 12 marta nashr etilgan deb belgilaydi²⁴. Ta‘kidlash kerakki, shoir asarlarini matnshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish natijasida keyingi yillarda ham 3 ta to‘plam dunyo yuzini ko‘rdi. Birinchisi Q.Pardayev yangi aniqlagan va matni qayta tiklangan she‘rlardan iborat “Biz bilmagan Muqimiy”²⁵ kitobi bo‘lib, unda sho‘rolar davrida g‘oyaviy tahrir qilinib, davr mafkurasiga moslab talqin qilingan Muqimiyning turli janrlardagi “Darig‘o mulkimiz”, “Hajvi Bekturboy”, “Dar mardumi Oqjar batariqi muxammas”, “Dar mazammati zamona”, “Voqeayi ko‘r Ashurboy hoji”, “Veksil”, “Dar mazammati qurbaqa”, “Hajvi xalifayi Mingtepa” sarlavhali asarlarining matnini qayta tiklangan.

¹⁶ Жўрабоев О. Мехрибони топмадим. /Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент. 1999, 3 сентябрь; Оразинг гулзорига бордим. /Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент. 2001, 9 февраль; Кўлэзма манбаларда Муқимий ижоди. //Гил ва адабиёт таълими. – Тошкент. 2001, 3-сон; Фитрати фазлу балоғат бўлғусидур шунчалар. //Тафаккур. – Тошкент, 2003, 3-сон; Ғафур Ғулом – муқимийшунос. //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2003, 2-сон; Мавлоно Муқимий дунёкараши ва ижодиётининг баъзи жиҳатлари хусусида. //ФарДУ ахборотномаси. – Фарғона. 2008, 2-сон; Уқбо ғамин чеккан шoir. //Ҳидоят. – Тошкент, 2010, 8-сон. Жўрабоев О. Муқимий назмининг назокати. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2020. 34-сон. – Б. 6.

¹⁷ Раҳмонов В. Мумтоз сўз баҳси. // “Ўзи билмай тоғ тиклаган олим ёки ҳаракатдаги тоғ”, ““Итмоқ” ва “етмоқ” муаммоси”, ““Зўр зан” зўр хотин”, “Кўсов “етти”тами ё каттами?”, “Шошма шошарликми ёки..”, “Шояд” нима дегани?”, “Кабки..даги”, “Хоки бўйинг”ми ёки “хоки кўйингми?” Тошкент: Адабиёт, 2022. – Б. 488-501.

¹⁸ Раҳмон.В. Мумтоз сўз баҳси. – Тошкент: Адабиёт, 2022.

¹⁹ Ўша жойда.

²⁰ Муқимий. Сайланма. (нашрга тайёрловчи: Ғ.Каримов) – Тошкент t: Маънавият, 2009.

²¹ Муқимий. Кўнглум сандадур. (Тўпловчи: Э.Очилов) – Тошкент. Шарқ, 2009.

²² Муқимий, Фурқат. Эй чехраси тобоним. (Машхур кўшиқлар) (Тўпловчи ва сўзбоши // Дилўртар кўшиқлар муаллифи Э.Очилов) – Тошкент: Ўзбекистон, 2013.

²³ Муқимий. Интизор (Кўшиқлар) (Нашрга тайёрловчи: Очилов Э). – Тошкент: Иқтисодиёт, 2021. –144.

²⁴ Падаев Қ. Муқимий шеърляти: матн тарихи, таҳрири ва талқини. Монография. – Тошкент: Мухаррир, 2019.

²⁵ Пардаев Қ. Биз билмаган Муқимий. (Янги аниқланган ва матни қайта тикланган асарлар)(Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Пардаев Қ). – Тошкент: Мухаррир, 2019.

Z.Qobilova nashrga tayyorlagan “Turkiy adabiyot durdonalari” turkumidagi “Muqimiy. Furqat. Hamza”²⁶ saylanmasiga Muqimiyning 90 ta she’ri kiritilgan.

Bobning ikkinchi fasli “**Muqimiy ijodiga yangicha yondashuvlar**”ga bag’ishlangan. “Qo‘qon adabiy muhitidan boshqa bir madaniy va ijodiy muhitda Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari haqgo‘y iste’dodlarning bemalol qalam tebratishiga men uncha ishonmayman”²⁷, deb yozgan edi atoqli adabiyotshunos Ibrohim Haqqul. Darhaqiqat, Qo‘qon adabiy muhiti tashkil topgandan buyon davom etgan barcha davrlarda ijod qilgan shoirlarga haq so‘zni aytish xos edi. XIX asr oxiri, XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhitida yaratilgan asarlarda mavjud ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘zgarishlar natijasi o‘laroq yangi mavzular, an’anaviylik bag‘ridagi zamonaviylik singari xususiyatlar qaror topdi. Chor Rusiyasining mustamlakachilik siyosatiga norozilik motivlari paydo bo‘ldi, istibdodga nisbatan murosasizlik ifodasi bo‘lgan islomiy-ma’rifat g‘oyalari kuchaydi. Davr ijodkorlari singari Muqimiy ham mavjud voqelikni anglab, badiiy idrok eta boshladi. Albatta, muqimiyshunoslik bosib o‘tgan uzoq yo‘l davomida tarixiylik tamoyili yetakchilik qilgan bo‘lsa-da, hukmron mafkura talablariga ortiqcha berilish hollari ham kuzatiladi. O‘tgan asrning birinchi choragida adabiyotshunoslikda Muqimiyning XIX asr oxiri XX asr boshida shakllanayotgan jadid adabiyotining ilk nomoyandasi sifatida baholash ko‘zga tashlanadi. 1934-yilda nashr etilgan Abdurahmon Sa’diy “O‘zbek burjua adabiyoti, XIX-XX asrlar” nomli darsligida Muqimiyning “burjua jadid shoiri, “jadidlarning salafi”²⁸ degan edi. Miyon Buzruk Solihov esa: “Muqimiy, Muhyi, Furqat, Vasliy, Akmal kabi sonlari 50 dan ortiq shoirlarning jadidizm davrini ko‘rib o‘tkanlarini ko‘ramiz”²⁹, deydi. Aslida har ikki olim mazkur fikrni vulgar sotsiologizm pozitsiyasida turib aytgan bo‘lsalar-da, ularning qarashlari haqiqatga mos kelardi. Bu haqda B.Qosimov: “...bizning jadidlarda fikr va g‘oya qorishiqligi juda kuchli. Mana, masalan, yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishi boshida turgan Muqimiy, Furqatlarni oling. Ular 30-yillarda jadid vakillari sifatida, umuman, to‘g‘ri talqin qilingan”³⁰.

Major olimi Yanosh Ekman ham Muqimiy va uning davrdoshlarining ma’rifiy qarashlarini Turkistondagi jadidchilik harakatiga asos bo‘lganligini ta’kidlagan edi: “...Xivali shoir Avaz O‘tardan boshqa jadid adabiyotining dastlabki namoyandalari Muqimiy, Furqat, Zavqiy va Zoriy kabi Xo‘qandli shoirlardir”.³¹

Adabiyotshunoslikda “Muqimiy bosib o‘tgan murakkab ijodiy yo‘l va uning sermazmun adabiy merosini mustaqillik, Millat va Vatan manfaatlari nuqtai nazaridan ko‘zdan kechirish va xulosalar chiqarishga ehtiyoj.....”³² paydo bo‘ldi.

²⁶Turkiy adabiyot durdonalari 100 jildlik. 11-jild. Muqimiy. Furqat. Hamza. (nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi Z.Qobilova) O‘zbekiston, 2022. 634. B. 9-270.

²⁷ Хаққул И. Ҳамза абадиёти. / Ҳамза ва аср ўзбек адабиёти. – Фарғона, 2019. – Б. 42.

²⁸ А. Саъдий. Ўзбек буржуа адабиёти. XIX-XX асрлар. – Тошкент: Ўздавнашриёт, 1934. – Б. 15.

²⁹ М.Бузрук. Ўрта Осиё ва ўзбек адабиёти тарихига умумий қараш. Биринчи қисм. – Тошкент: Ўздавнашриёт, 1930. – Б. 88.

³⁰ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 8.

³¹ Janos Eckmann. Harezim, kipcak ve cagatay turkcesi uzerine arastirmalar. Ankara, 1996, B – 209.

³² Qosimov B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent: Ma’naviyat, 2004. – B. 95

O'tgan yillar davomida Tatariston jadidlarining ta'sirida Turkiston o'lkalarida jadidchilik g'oyalari yoyilganligi e'tirof etib kelindi. Aslida esa XIX asr oxiridagi mavjud sharoit, endi eskicha yashab bo'lmasligini, tuzum ham, odamlar ham o'zgarishi lozimligini birinchi navbatda Muqimiy singari ijodkorlar yaxshi anglashgan. Ular mavjud holatdan qutulishning yo'lini esa ma'rifatda ko'rganlar, shu bois ham asarlarida ma'rifat g'oyalarini kuylay boshlaganlar.

Muqimiyning "Darig'okim, ajoyib turfa bir oxir zamon bo'ldi, Iki qo'l to yoqoda yurmasang, ishlar yomon bo'ldi" bayti bilan boshlanuvchi "Dar mazammati zamona" sarlavhali g'azalida xalqning tobora din-u diyonatdan yiroqlashib borayotgani, axloq va tarbiya masalasi og'irlashib, "ishlar yomon"lashib, millat ma'naviy inqirozga yuz tutgani aks etgan. Matnshunos olim Q.Pardayev mazkur g'azal shoir asarlarining 1958, 1960, 1974-yilgi nashrlarida 7 bayt qisqartirilib berilganligini, bu holat shoirning chor mustamlakasiga nisbatan tanqidiy qarashlarini yashirin qolishiga olib kelganligini ta'kidlaydi va g'azalning to'liq matni Muqimiyning 1325 raqamli dastxat bayozida (120a sahifa) berilganligini ta'kidlab, tushirib qoldirilgan baytlarni ma'lum qiladi³³. Mazur g'azal to'laligicha 2021-yilgi nashrga kiritilgan. G'azalning ayrim baytlariga diqqat qarataylik:

*To'lib cherkas, qizilbosh, armanilar shahrimiz ichra,
Musulmonlar tahipo, yaxshilar ko'zdin nihon bo'ldi.
Hamiyat aylab Ahmadjon turib tujjor ahlidin,
Shijoatdin tanida har sari mo'yi sinon bo'ldi.
Chidolmay g'ayratidin yurtni xayriyatini istab,
Olib ahli saroyin to'g'ri hokimg'a ravon bo'ldi³⁴.*

Tushirib qoldirilgan baytlarda g'ayridinlar mustamlakasi dastidan musulmonlar oyoq osti bo'lgani, savdogarlar bosh ko'targani, ularning vakili sifatida Ahmadjon ismli tujjor bu holga chidolmay yurt xayriyatini o'ylab, hokimga borgani ya'ni mavjud ijtimoiy ahvol ro'y-rost ko'rsatilgan.

"Darhaqiqat, chor hukumati Turkistonda o'z hokimiyatini mustahkamlash, istibdod siyosatining davomiyligini ta'minlash maqsadida xalqni iloji boricha jaholatda asrash, millatning ongli, ma'rifatli farzandlarini ayovsiz qatag'on girdobiga tashlash siyosatini olib bordi"³⁵. Muqimiy millatning rivojlanishi, yuksalishiga to'siq bo'layotgan illatlarni: jaholat, ilm-fan taraqqiyotidan ortda qolish, o'zaro nifoq va nizolar va bu illatlarning boshi bo'lgan ichkilikbozlikni ayovsiz qattiq tanqid ostiga oldi. Shoirning:

*Ichkilikka o'rgatib, oxir piyonista qilib,
O'zlaridek sog'ni ham qildilar cho'log'lar.(26)*

baytiga Abdulhamid Cho'lponning: "Ey qarindoshlar...katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'poning mo'dosidan, shishasidan, buzuq axloqidan namuna

³³ Пардаев Қ. Муқимий шеърляти: матн тарихи, таҳрири ва талқини. Монография. – Тошкент: Мухаррир, 2019. – Б. 29.

³⁴ Муқимий. Тўла асарлар тўплами. (Нашрга тайёрловчи: Турдиалиев А). – Тошкент: Иқтисодиёт, 2021. – Б. 362. Shoir g'azallaridan keltiriladigan keyingi misollar shu nashrdan olinib, sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

³⁵ Жабборов. Н. Фуркатнинг хориздаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филология фанлари доктори дисс. – Тошкент: 2004. – Б. 23-24.

olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlaridan namuna olub, bul jihatdan taqlid qilmog'imiz lozimdur. Ovro'poning mo'dosi, shishasi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir, qul qiladur. Bundan saqlaningiz!.. Birodarlar, ko'zlarinigizni ochib, yaxshi o'ylangizlar!³⁶ degan fikri hamohangdir.

Muqimiy jiyani Ro'zimuhammad Do'stmatovni ham zamonasining ilmli, dongdor kishilaridan bo'lishini juda-juda orzu qilgan va bu haqda unga yuborgan maktublardan o'qiymiz: "...xalq ichida bir masal bordurkim, ajab ermaskim, nonu nasib, siz qayda erdingiz va Moskov qayda erdi, yana oxirida, ajab ermaskim, ...bir katta amaldor bo'lub shul taraflarga yana ikkinchi kelsangiz.. Ul mamlakatlarda ajoyib va g'aroyib ishlar ko'p, yozib xatingizni ko'prog' qilinkim, filjumla o'qub qongudek bo'laylik³⁷. Qaydlardan anglashiladiki, Muqimiy jiyani timsolida Vatan va millat manfaatlari uchun xizmat qiluvchi, yangi asr ilm-u fanidan yaxshi xabardor avlodni ko'rishni istagan.

Muqimiy ijodida diniy-ma'rifiy va tasavvuf g'oyalari bilan sug'orilgan she'riy asarlar ham talaygina. Avvalo, bu hol ko'p asrlik o'zbek mumtoz adabiyotining bosh mavzusi bo'lib kelgan ishqni kuylashga tutashsa, ikkinchi tarafdin shoir bosib o'tgan yo'l bilan bog'liq. "Sharq mumtoz adabiyoti nomoyandalari ijodiy merosining umrboqiyiligini ta'minlab kelayotgan bosh omil islom ma'rifati va tasavvuf axloqi ekani ayni haqiqatdir"³⁸. Shoirning quyidagi g'azali mazkur fikrlarning isbotidir:

*Hidoyat qilmasa tavfiqi fazling, g'arqi isyonman,
Ibodatlarda nuqson ko'p, namozimda riyo, yo Rab.
Hayotim mazraiga ma'siyatlar donasin sochdim,
Agarchi tongla lutf et, hosilim jurmu xato, yo Rab.
Harimi qurbig'a mendek gadoni yetmaki mushkul,
Anikim dargohida bo'lsa sultonlar gado, yo Rab (18)*

"Yo rab" radifli ushbu g'azalni shoirning Yaratganga munojoti sifatida qabul qilmoq kerak. Chunki unda "g'arqi isyon", "ibodatlarida nuqson", "namozida riyo" bo'lgan, hayoti davomida umr marzasiga gunoh donalarini sochgan bandaning Alloh taologa yozg'irishlari, O'zidan hidoyat, mahshar kunida rahm etishini o'tinib so'rashi aks etgan.

Muqimiy dunyoqarashi, hayot tarzi haqidagi asos manbalardan biri uning maktublaridir. Jiyani Ro'zimuhammadga yozgan xatlarida uni besh vaqt namozni kanda qilmaslikka chaqiradi, hayit bayrami bilan qutlaydi, bu dunyoning bevafo ekanligini eslatadi³⁹. Muqimiyning islomiy-tasavvufiy hayot tarzi haqida xabar beruvchi yana bir manba bu - Po'latjon Qayyumovning "Tazkirai Qayyumiy" tazkirasidir. Unda quyidagi ma'lumot berilgan: "Muqimiy xalqga shoir bo'lib tanilgan. Shu ishda faqirlik ila yashagan. Husni xat egasi xattot, insho, tahrirda mukammal xatnavislik bilan hayot kechirgan. Imom, mutavalli, yo qozi bo'lsa,

³⁶ Чўлпон. Ватанимиз Туркистонда темир йўллар. // Садои Фарғона, 1914 йил 6 июнь, № 26.

³⁷ Муқимий. Тўла асарлар тўплами. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2021. – Б. 339- 342.

³⁸ Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Ф.ф.д. дис. – Тошкент: 2004. – Б. 87.

³⁹ Муқимий. Тўла асарлар тўплами. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2021. – Б. 343-344.

ilmi tayyor edi. Bu xizmatlarni qilmadi”⁴⁰. Darhaqiqat, Muqimiy diniy ilmlarni puxta egallagan edi, ammo o‘zigacha yashab, ijod etgan so‘fiy shoirlar kabi xalol rizq topish bilan ya’ni xattotlik bilan kun kechirdi.

Shoir bir baytida bu dunyoni mehnatxona deb ataydi. Kishini tafakkur qilishga chorlaydi va dunyoyi uqbodan rohat ko‘rish mumkin emas, chunki bu mehnatxonada shodlik kutib bo‘lmaydi, deb yozadi:

*G‘ofilo, fikr aylag‘il uqboni rohat istasang,
Shodlig‘ ko‘z tutmakim, bo‘lmaydi mehnatxonada (117)*

Shoir qalamiga mansub g‘azallarni din-u islom yo‘lida yurgan, sobit e‘tiqod egasi qalamidan chiqqan badiiyat namunalari sifatida baholash mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Adabiy an‘analar va Muqimiy ijodiyotining takomili”** deb nomlangan. Birinchi fasl **“Muqimiy g‘azaliyotida folklorizimlarning o‘rni”** tadqiqiga bag‘ishlangan.

“Muqimiy she‘riyatidagi xalqona ruh og‘zaki nutqda, ko‘proq so‘zlashuv jarayonida erkalash, iltifot, ba‘zan minnatdorchilikning o‘zbekona shakli sifatida “o‘rgulay”, “aylanay”, “tasadduq”, “esonmisiz?”, “omonmisiz?” so‘zlari ko‘p uchraydi”.⁴¹ Shu jihatdan qaraganda, Muqimiy uslubi shaxsiyati, yashagan davri, adabiy muhiti, ijod olami bilan belgilanadi. Chunki Muqimiy shaxsiyatidagi soddalik, samimiylik, insoniylik kabi sifatlar uning ijodiga ham ko‘chgan. “O‘rgulsun”, “o‘ynaylik, kulaylik”, “aylansun”, “tokaygacha”, “mayligamu”, “o‘rgulay” radifli g‘azallarida buning isbotini ko‘rish mumkin.

*Ey yaxshilar, kelaylik, bir joyga yig‘ilaylik,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik.
Bu umr ekan baqosiz, dunyoyi dun vafosiz,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik. (52)*

Ushbu g‘azal sof so‘zlashuv uslubida. Unda og‘zaki nutqda ishlatiladigan “o‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik” jumalari har bir baytning ikkinchi misrasida takrorlanib, she‘rning ohangdorligini, sodda va tushunarli bo‘lishini ta‘minlagan.

Muqimiy g‘azallarida shayton, dev, pari singari mifologik obrazlar stilizatsiyasi kuzatiladi. Pari obraziga murojaat ko‘proq seziladi. Folklorshunos O.Qayumov mazkur obraz haqidagi dastlabki ma‘lumotlar “Avesto”da uchrashi va u “payrika” nomi bilan qayd etilganligini, payrika mifologik personaj nomi bo‘lib, genetik jihatdan pari obrazining arxaik ko‘rinishlaridan biri hisoblanishini ta‘kidlaydi⁴². Muqimiy ham “pari” obrazini folklor asarlaridagidek go‘zal qiz sifatida tasvirlaydi va oshiqlik motivi bilan bog‘laydi. Bir g‘azalida “Bahor faslida dashtlarda ochilgan lolalar emas, ul parining hajrida meni ko‘zimdan oqqan qonli yoshlarim”, deya mubolag‘a qiladi:

*Lola ermas dashtlarda ochilgan fasli bahor,
Ko‘zdin oqqan ul parini hajrida qonim mani (138).*

⁴⁰ Қаюмов. П. Тазкираи Қаюмий. – Тошкент: Қўлэзмалар институти, 1998. – Б. 210.

⁴¹ Tojiboyeva M. Muqimiyning xalqona ruhdagi she‘riyati xususida. Qo‘qon adabiy muhiti va uchinchi renessans (xalqaro ilmiy-amaliy anjuman). Farg‘ona: Farg‘ona. 2022. – Б. 192.

⁴² Қаюмов О. Пари образининг генезисига доир мулохазалар. XX аср ўзбек фольклоршунослиги антологияси. (Тузувчилар: Тўлабоев О, Жўраев М ва бошқалар)Ўзбекистон миллий энциклопедияси.– Тошкент, 2017. – Б. 576

Muqimiy ijodida etnografik folklorizmlardan foydalanish ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Quyidagi baytda o‘zbeklarning madaniy turmush tarzi - xalqning mehmon oldiga dasturxon solish odatidan ma’shuqaning visolidan bahramand etishini tasvirlash uchun foydalanadi:

*Xoni vaslingga bore aylasang netar mehmon,
Hajr kunjida tokay o‘tmas osh tamog‘lardin (100).*

Ya’ni: “Hech qursa bir marta visoling dasturxoniga chorlab, mehmon qilsang, bir yering kamayib qoladimi, axir, qachongacha hijron go‘shasida tomoqlardan taom o‘tmaydi?”

“Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q”, degan asrlarni bo‘ylab kelayotgan xalq maqolini Muqimiy quyidagicha ifodalaydi:

*Mulki Hind-u Marvdin kelsam topardim e‘tibor,
Shul erur aybim, Muqimiy, mardumi Farg‘onaman. (98)*

Muqimiy g‘azallarida folklordagi olqish va qarg‘ishlar asosida betakror analitik folklorizmlarni yaratgan. Shoirning tili ba’zida yaramas, tuban, bevafo, jaf o qiluvchi, paskash, kibrli insonlarga qarata “qiron kelsin” deb beixtiyor qarg‘ishga ham aylanadi:

*Iloho jumla tuxmi bevafolarg‘a qiron kelsun,
Jaf o‘, siflaxo‘, baxti qarolarg‘a qiron kelsun.
Yo‘lida xonumonlar sarf etib, jonlar fido qilsang,
Darig‘o, hech bilmas norasolarga qiron kelsun.
Qilurlar karru-farlar ikki kunlik davri-davrong‘a,
Kibrlik mahmadona, badhavorlarga qiron kelsun... (107)*

Ma’lumki, nafrat va g‘azab qarg‘ishlar tabiatini belgilovchi asosiy alomatdir. Xalq qarg‘ishlarning badiiy shakli, tili va ifoda uslubidan ijodiy foydalanib yaratilgan ushbu g‘azalda yaxshilikni bilmaydigan, fidoyilikni qadrlamaydigan yaramas kimsalar, ko‘yida qon yutgan oshig‘ini xor qiladigan beqaror go‘zallar, to‘rt kunlik davr-u davroniga bosar-tusarini bilmay qolgan kibr-u havo bandalari, pastkash-u nokas do‘st-u yaqinlar qarg‘ish kamoniga solib otiladi. Ta’kidlash kerakki, Muqimiy qo‘llagan qarg‘ishlar birgina obyektga emas, balki umumga qaratilganligi bilan ijtimoiy mohiyat kasb etib, xalqona uslubdagi qarg‘ishlardan mazmunan farq qilmoqda.

Tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, Muqimiy xalq og‘zaki ijodi, folklor unsurlaridan o‘z ijodida o‘rinli foydalangan va bu orqali o‘z she’rlarining soddaligi va ravonligi, jarangdorligi va ta’sirchanligi, xalqchilligi va badiiy barkamolligini ta’minlagan.

Ikkinchi fasl “Adabiy ta’sir va ijodiy o‘ziga xoslik” deb nomlangan. Sharq so‘z san’ati asrlar davomida an’ana asosida rivojlanib kelgan. Qo‘qon va Buxoro madrasalarida tahsil olgan, o‘zbek tili bilan birga, fors-tojik va arab tillarini ham yaxshi o‘rgangan Muqimiy fors-tojik va o‘zbek so‘z san’atkorlari asarlaridan mahorat sabog‘ini oladi, ta’sirlanadi va ilhomlanadi. Ustozlari qalamga olgan mavzularni davom ettirib, ularning yangi qirralarini ochadi, an’ana yo‘lida o‘ziga xos xalqchil uslubini yaratadi. Adabiyotshunos Z.Qobilova an’ana doirasida ijod qilishni juda murakkab va qiyin jarayon deb baholaydi. Ba’zida izdoshlik, adabiy ta’sirlanish chegaralari rioya etilmagani sababli, adabiy o‘g‘rilik (plagiat)

hodisasi ham sodir bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi⁴³. Darhaqiqat, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida minglab shoirlar ijod qildilar. An'ana doirasida yangilik qila olganlarigina avlodlar tomonidan mutolaa qilinyapti, o'rganilyapti. Adabiy o'g'rilik sodir qilganlar esa, o'z zamoni chegarasidan o'tolgani yo'q.

Muqimiyning birinchi ustози Alisher Navoiy edi. Muqimiy Navoiyning “bor”, “bor edi”, “koshki”, “gul”, “qilmasun”, “etmayin”, “yo Rab”, “kim desun” va boshqa g'azallari ta'sirida ularga hamohang naziralar bitadi⁴⁴. Quyidagi baytda Hazrat Navoiy oshiqning ruhiy holatini obrazli ifoda qilgan:

*Kechib ko'z din, yozay bir xatki, dahr ahlig'a ko'z solmay,
Bu damkim, ko'z savodidin qora, ko'z din davotim bor.*⁴⁵

Ya'ni: Ko'zimdan kechib, qorachig'ini siyoh va kipriklarimni qalam qilaman va shu damda olam ahliga bir xat yozaman.

Muqimiy salafi an'anasini ijodiy davom ettirgan holda yozadi:

*Xoma mujgon, ko'z qarosidin yozib rozi dilim,
Arzae qildim eshit ma'yusu mushtoqman. (97)*

Bu yerda ham kipriklar qalam, ko'z qorasi siyoh o'rnida kelib, oshiq dil izhorlarini bayon etishga vosita sifatida talqin qilinadi.

Muqimiy zabardast ozar so'z san'atkori Fuzuliy ijodidan ham nihoyatda samarali bahramand bo'lgan⁴⁶.

